

2025 yil 18-oktabr kuni Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida **“Matematik analiz va uning zamonaviy matematik fizikaga tadbiqlari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

HISOBOTI

1. **Anjuman mavzusi:** Matematik analiz va uning zamonaviy matematik fizikaga tadbiqlari (Математический анализ и его приложения к современной математической физике) (Mathematical analysis and its applications to modern mathematical physics)

2. **Anjumanning maqomi:** respublika miqiyosda.

3. **Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar:** 2019 yil 9 iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4387-son Qarori, 2020 yil 7 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4708-sonli Qarori.

4. **Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsadi va vazifalari:** O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasi to'g'risida va Prezidentning qaror va farmonlaridan kelib chiqqan holda matematikaning turli yo'nalishlaridagi yangi ilmiy-tadqiqot natijalarini muhokama qilish va keng jamoatchilikka targ'ib qilish. Shuningdek, Respublikamizdagi va xorijdagi olimlarning quyida keltirilgan ilmiy yo'nalishlar bo'yicha muammolar, yechimlar va hamkorlik, erishgan yutuqlari bilan tanishish va shu asnoda yangi izlanishlar va yosh olimlarni istiqbolli ilmiy yo'nalishlarga keng jalb qilishdan iborat.

5. **Muhokama qilinadigan muammolar:**

- *Matematik fizika*
- *Matematik va kompleks analiz*
- *Matematik modellashtirish*
- *Extimollar nazariyasi va metodika*

6. **O'tkaziladigan anjumanning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi:** Anjuman mamlakatimizda fanning ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlarni amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida muammolar, yechimlar va xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va yosh olimlarni sohaga jalb qilish hamda ularni sohaning yetuk mutaxassislari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash borasida ahamiyatga egadir.

7. **Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik:** Anjuman mamlakatimizda matematika sohasidagi fanning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlarni amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida hamkorlikni yanada kengaytirish, yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb qilish, ularni sohaning yetuk mutaxassislari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash borasida katta ahamiyatga egadir. Xususan, ilg'or xorijiy ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarni taklif qilish orqali xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda, O'zbekiston matematikasini jahon miqyosiga olib chiqishda hamda xalqaro hamjamiyatda nufuzini yanada oshirishda ushbu anjuman muhim o'ringa ega bo'ladi.

Matematik analiz, algebra, geometriya, differensial tenglamalar va matematik fizika, matematik modellashtirish, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika yo'nalishlaridagi muammolar, yechimlar, erishilgan yutuqlar, olingan ilmiy natijalarni sanoat va xalq xo'jaligiga hamda ta'limga tatbiq etish yo'llari muhokama qilinadi.

8. **Ilmiy-amaliy anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va magistrantlarning ishtirok etishi:** Anjumanda Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti matematika fakulteti va O'zMU matematika fakulteti, hamda respublika oliy o'quv yurtlari, Fanlar Akademiyasida ilmiy-tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va magistrantlari va bakalavrlarning ishtiroki ko'zda tutilgan (ularning umumiy soni 200 kishi, jumladan xorijdan – 7 kishi).

9. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti matematik fizika va funksional analiz kafedrası o'tkazadigan ushbu konferensiyada Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti va uning hududiy bo'linmalari, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va respublikaning boshqa oliy ta'lim muassasalaridagi soha vakillari, ilmiy-tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar, tayanch doktorantlar, doktorantlar, magistrantlar va iqtidorli talabalar ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Anjuman 2025-yil 18-oktabr kuni soat 10 00 da Samarqand davlat universiteti Matematika fakultetida boshlandi hamda anjumanning yalpi ochilish marosimini Samarqand davlat universiteti prorektori A.Soleeyev so'zga chiqib anjuman bo'yicha taklif va fikrlar berib o'tib anjuman ishiga muvaffaqiyat tiladi. Tadbirda respublikamiz hamda Isroil, Rossiya va Qozog'istondan tashrif buyurgan olimlar bilan mazkur mavzu doirasida ilmiy munozaralarda fikr almashildi. So'ngra anjumanda soha mutaxassislari o'z ma'ruzalari bilan chiqish qildi.



Anjumanda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti va uning hududiy bo'linmalari, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va respublikaning boshqa oliy ta'lim muassasalaridagi soha vakillari, ilmiy-tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar, tayanch doktorantlar, doktorantlar, magistrantlar va iqtidorli talabalar ishtirok etishdi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

